TA’LIM TEXNOLOGIYASINI JORIY ETISH TALABANI FAOLLASHTIRISH MEZONI SIFATIDA

Mamatov D.N.,
p.f.d., professor

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy ta’lim tizimida keng qo‘llanilayotgan texnologiyalar, ulardan foydalanish yo‘llari, pedagogik texnologiya darajasidagi faoliyatning mezonlari (kriteriyalari) va talabalar bilish vositalariga oid bilimlarga ega bo‘lishlari keltirilgan. Shu bilan birga “Texnologiya va dizayn” fani bo‘yicha talabalarda shakllantiriladigan bilim, ko‘nikma va malakalar mazmuni berilgan.

Kalit so‘zlar: bilim, malaka, ko‘nikma, kriteriya, texnologiya, dizayn.

Аннотация: В статье рассматриваются технологии, широко используемые в современной системе образования, их последующие этапы, критерии активности в педагогических технологических процессах, а также получение знаний, связанных с производственной деятельностью учащихся. При этом приводится содержание знаний, умений и компетенций, которые будут формироваться у студентов по предмету «Технология и дизайн».

Ключевые слова: знания, компетенции, умения, критерии, технологии, проектирование.

Annotation: The article provides information on technology used in the modern education system, the ways in which they are used, the criteria for the using of pedagogical technology and students shoul have knowledge of the tools. At the same time, the content of knowledge, skills and abilities formed in students on the subject "Technology and Design".

Key words: knowledge, qualification, skills, criteria, technology, design.

Hozirgi ta’lim jarayonida kompyuter texnikasidan foydalanib, darslarda slaydlar, vertual ma’ruzalar, multimediyalar namoyish etilmoqda. Bu esa o‘z navbatida ekran qo‘llanmalarini yaratishga va ulardan foydalanishga nisbatan qo‘yiladigan uslubiy, tashkiliy sanitariya-gigiena qoidalarini, talablarini ishlab chiqishni hamda amalda joriy etishni talab qilmoqda. Bundan tashqari xozir o‘qitish ishlarida “Zamonaviy texnologiya”, “Ilg‘or pedagogik texnologiya”, “O‘qitish texnologiyasi”, “Ta’lim texnologiyasi”, “Noan’naviy usul” kabi atamalar keng qo‘llanilmoqda. Xususiy holda bu atamalar o‘ziga xos ma’nolarni bildiradi. Masalan: “Pedagogik texnologiya” umumiy nomni bildirsa, “Ta’lim texnologiyasi” uning ilmiy yo‘nalishini, “O‘qitish texnologiyasi” esa amaliy yo‘nalishini ifodalaydi. Qolganlari esa hosilaviy atamalardir. Mazkur atamalarni umumlashtirib ta’limning faol (yoki faollashtirilgan) usullari deb atash mumkin. Chunki mazkur atama va nomlar qanday atalishidan qat’iy nazar ularning zamirida talabalarga bilim berish, ularni tarbiyalash ishlarini faollashtirish masalasi yotadi.

Fanni o‘qitish jarayoni, talabalarning bilish, ijodiy faoliyatini faollashtirish didaktik sharoitlari va texnologiyasiga yo‘naltirilganligi hisobga olinsa, pedagogik

texnologiya darajasidagi faoliyatining mezonlari (kriteriylari) sifatida quyidagilarni ko‘rsatish muhimdir:

- Aniq berilgan maqsadning mavjudligi, ya’ni tushunchalar, talabalar faoliyatining kutilayotgan o‘qitish natijalari, bu maqsadga erishish usullari kabi korrekt o‘lchanishi;
- Mavzuni o‘zlashtirishning etarlicha qat’iy ketma-ketligi, ma’lum bosqichlarning mavjudligi;
- O‘rganilayotgan mavzu mazmunini bilishi va amaliy masalalar ko‘rinishida va ularni echish usullarini ko‘rsatish;
- O‘quv jarayoni ishtirokchilarining (o‘qituvchi va talabalarning bir-biri bilan) o‘zaro ishlashi usullarini ko‘rsatish;
- O‘quv jarayonining natijaviyligi nuqtai-nazaridan o‘qituvchining eng optimal o‘qitish vositalaridan foydalanishi;
- O‘qituvchi va talabalarning shaxsiy vazifalarini amalga oshirishlariga asoslangan faoliyatning motivatsiyali asoslanishi (erkin tanlov, kreativlik, musobaqalashish, hayotiy va kasbiy ma’no);
- O‘qituvchining qoidaviy (algoritmik) va ijodiy faoliyati chegaralarini belgilash, yagona qoidalardan ruhsat etiladigan chetga chiqishlarini ko‘rsatilishi.

Bu sanab o‘tilgan kriteriylar talabalarning ijodiy faoliyatini faollashtirishning didaktik sharoitlari va texnologiyasi shakllanganlik baholari kriteriylarini ishlab chiqishda asos bo‘ladi va talabalar bilish vositalariga oid quyidagi bilimlarga ega bo‘lishadi:

- O‘zbekistonda ishlab chiqarish turlari, ishlab chiqarishda yangi texnika va ilg‘or texnologiyalar, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish omillari va istiqbollari, ishlab chiqarishni tayyorlashga oid texnologik hujjatlar;
- Yog‘och turlari va ularning xususiyatlari, yog‘ochga ishlov berishda qo‘llaniladigan asboblar, uskunalar, qo‘lda ishlov beradigan asboblar, mexanizatsiyalashtirilgan va elektrlashtirilgan dastgohlar, stanoklar texnologik kartani tuzish va undan foydalanish;
- Metal turlari va xususiyatlari, metalga ishlov berishda ishlatiladigan asbob-uskunalar, dastgohlar, stanoklar, elektrlashgan va mexanizatsiyalashtirilgan jihozlar, mashina, mexanizm elementlari va turlari, texnologik karta tuzish va foydalanish;
- Yurtimiz me’morchiligi tarixi, xona intereri va jihozlash dizayni, zamonaviy dizayn yo‘nalishlari;
- Mehnatni muhofaza qilish qonunlari, nizomlari, xavfsizlik asoslari, ishlab chiqarishda sog‘lom va xavfsiz mehnat sharoitini yaratish, instruktsiyalar turlari va ular bilan tanishish, hodimlarning huquq va burchlari, ishlab chiqarish sanoatida sanitariya-gigiena talablari.

Talabalarda “Texnologiya va dizayn” faniga oid quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalar shakllantiriladi: yog‘och va metalning turlari, xususiyatlari, ularni rejalash, arralash, teshish, pardozlash, qo‘l va elektr asboblarining tuzilishi, ishlashi, dastgohlar, elektr va mexanizatsiyalashtirilgan jihozlar, mashina va mexanizmlar elementlari, yangi texnika va ilg‘or texnologiyalar asoslari hamda texnologik xaritalar tuzish va foydalanish, pol va mebel qoplamalari ularni saqlash, pardozlash

me’morchilik ishlari, mehnat qonunlari va nizomlari, instruktsiyalar texnika xavfsizligi va sanitariya-gigiena qoidalari.

Yuqorida aytilgan fikrlarni umumlashtirib texnologiya va dizayn fanini o‘qitishda texnologik yondashuvining mohiyati quyidagicha asoslanishi mumkin:

- O‘quv jarayonini dastlabki loyihalash va bu loyihani pedagogik amaliyot davrida qayta tiklash imkoniyati;
- Quyidagi didaktik maqsadlarga erishganlik sifatini ob’ektiv nazorat qilish imkoniyatini ko‘zda tutuvchi maxsus maqsad tuzish;
- O‘qitish texnologiyasining strukturaviy va mazmunini yaxlitligi ya’ni uning kompetentlaridan biriga, boshqalariga tegmasdan turib o‘zgartishlar kiritilishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligi;
- O‘qitish texnologiyasi barcha elementlarining to‘la aniqlangan va qonuniyatli bog‘lanishlari bilan taqazo etiladigan optimal metodlar va vositalarning tanlanishi;
- O‘qitish jarayonini o‘z vaqtida va samarali korrektsiyalash imkonini beradigan teskari aloqaning mavjudligi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarning bilish, ijodiy faoliyatini faollashtirishning didaktik sharoitlari o‘qitish texnologiyasi doirasida nazariy bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni, o‘quv fani loyihasini yaratishlari va amalga oshirishlari sharoitlarida ro‘yobga chiqarish mumkin. U talabalarning bilish ijodiy faoliyatini faollashtirishning didaktik sharoitlari faoliyatini faollashtirishning didaktik sharoitlari va texnologiyasi maqsadlariga erishish vositasi bo‘ladi. Talaba ta’limiy dasturning barcha bo‘limlarni faoliyatining bilimlari va usullarini, kasbiy vazifalarni hal etish vositasiga aylantirish texnologiyasiga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. R.Ishmuxammedov va boshqalar. “Ta’limda innovatsion texnologiyalar” T – 2008 y. -179 b.

2. R.Ishmuxammedov va boshqalar. “Tarbiyada innovatsion texnologiyalar” T – 2010 y. – 140 b.

3. J.Tolipova va boshqalar. “Ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnolgiyalar” “Xalq ta’limi” jurnali, 202 y. №3. 20-24 b

4. A.Mavlonov va boshqalar. “Pedagogik texnologiya – tamoyillari asosida dars mashg‘ulotlarini olib borish texnologiyasi” T – 2010 y. 16-22 b.

5. H.Omonov va boshqalar. “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” darslik TMI – 2012 y. 555b.